




# **“ ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ”**

**республика илмий-амалий  
конференция материаллари  
тўплами**

**(2020 йил 21 август)**



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ ТИЛИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ ДЕПАРТАМЕНТИ

---

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР АКАДЕМИЯСИ

---

ЎЗБЕК ТИЛИ, АДАБИЁТИ ВА ФОЛЬКЛОРИ ИНСТИТУТИ

---

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛШҲИ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

---

РЕСПУБЛИКА МАЪНАВИЯТ ВА МАЪРИФАТ МАРКАЗИ

---

ЎЗБЕКИСТОН ЁЗУВЧИЛАР УЮШМАСИ

---

## **“ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ”**

*республика илмий-амалий конференцияси  
материаллари тўплами*

*(2020 йил 21 август)*

ТОШКЕНТ  
«O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI»  
2020

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ ТИЛИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ ДЕПАРТАМЕНТИ

---

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР АКАДЕМИЯСИ

---

ЎЗБЕК ТИЛИ, АДАБИЁТИ ВА ФОЛЬКЛОР ИСТИТУТИ

---

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

---

РЕСПУБЛИКА МАЪНАВИЯТ ВА МАЪРИФАТ МАРКАЗИ

---

ЎЗБЕКИСТОН ЁЗУВЧИЛАР УЮШМАСИ

---

## **“ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ”**

*республика илмий-амалий конференцияси  
материаллари тўплами*

*(2020 йил 21 август)*

ТОШКЕНТ  
«O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI»  
2020

УДК: 811.512.133(062)

КБК: 81.2Ўзб(я43)

Ў 16

“Ўзбек тилшунослигини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари” [Матн]: конференция материаллар тўплами, 21 август 2020 й / тўпловчилар: Феруза Мусаева, Азиза Аҳмедова. – Тошкент: «O`zkitobsavdonashriyoti», 2020. - 340 б.

**Масъул муҳаррир:**

ф.ф.д.проф Низомиддин Маҳмудов

**Таҳрир хайъати:**

**Ш.Сирожиддинов** – ф.ф.д., проф;

**Д. Худойберганова** – ф.ф.д., катта илмий ходим;

**Д. Лутфуллаева** – ф.ф.д., проф;

**Ё. Одилов** – ф.ф.д., катта илмий ходим;

**А. Мадвалнев** – ф.ф.н., катта илмий ходим;

**Н. Маҳкамов** – ф.ф.н., катта илмий ходим;

**Ф. Мусаева** – ф.ф.бўйича фалсафа доктори;

**Ғ. Исмаилов** – ф.ф.н., катта илмий ходим;

**Н. Аҳмедова** – ф.ф.н., доцент.

**Нашрга тайёрловчилар:**

Феруза Мусаева

Азиза Аҳмедова

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 12 декабрдаги қарори билан тасдиқланган “Ўзбек тилининг давлат тили сифатида кўлланишINI кенгайтириш, ривожлантириш, илмий тадқиқотларни кўллаб-қувватлаш, ўқитиш методикасини такомиллаштириш бўйича 2019-2020 йилларга мўлжалланган чоратадбирлар дастури” ижроси доирасида тайёрланди

ISBN 978-9943-6409-1-7

## 1-БЎЛИМ. ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ

*Низомиддин МАҲМУДОВ,  
ф.ф.д., профессор*

*Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти*

### ЎЗБЕК ТИЛИ СОЦИОЛИНГВИСТИКАСИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Мамлакатимизда барча соҳаларда бўлаётгани каби давлат тилининг ўрни ва нуфузини ошириш борасида туб бурилиш жараёнлари бошланганлигини мамнуният билан таъкидламоқ жоиз. Президентимиз Ш.Мирзиёев ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида бу борада қилнадиган кўламли ишларнинг тўлақонли тарҳини чизиб берар экан, бу ишларнинг пировард натижаларини қуйидагича ифода этди: “Мухтасар айтганда, ҳар биримиз давлат тилига бўлган эътиборни мустақилликка бўлган эътибор деб, давлат тилига эҳтиром ва садоқатни она Ватанга эҳтиром ва садоқат деб билишимиз, шундай қарашни ҳаётимиз қондасига айлантиришимиз лозим”. Ҳар бир фуқаронинг онгу шуурида ана шу қонданинг саломатлиги ва собитлиги юрт юксалишининг ҳам, мамлакат мустақиллиги муҳофазаси мунтазамлигининг ҳам гаровидир.

Мазкур тарихий нутқда таъкидланганидек, “дунёдаги қадимий ва бой тиллардан бири бўлган ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир”. Албатта, бу бебаҳо бойлик, буюк қадрият миллий ўзликнинг асрий илдиzlари сифатида, ўзбек қавмининг она тилиси сифатида ўзбекнинг миллий-маънавий дунёсини чароғон қилиб турса, давлат тили сифатида кўп миллатли мамлакатимиз фуқаролари қалбига бир давлатга, бир юртга мансублик, бирдамлик туйғуларини жойлайди.

тилида қай даражада қўлланилиши ва имлоси билан боғлиқ бўлган жараёнларни ўрганиш масалалари ҳам бугунги кунда муҳим аҳамият касб этадики, бу эса она тилимизни турли таъсирлардан ҳимоя қилишда асқотиш шубҳасиздир.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Бегматов Э. Мустақиллик ва топонимия // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009. -№ 5. – Б. 9-15.

2. “Географик объектларнинг номлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикасининг қонуни // Халқ сўзи. 2011 йил. 12 октябрь сони.



## 2-БЎЛИМ. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ

*Klaraxon MAVLONOVA,  
filologiya f. bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ToshDO'TAU  
Nilufar Xakimova,  
Olmaliq shahar 19-maktab o'qituvchisi*

### ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА О'QISH SAVODXONLIGINI EGALLASH IMKONIYATLARI

Juda tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davrda muayyan fan yoki soha bo'yicha muvaffaqiyatga erishish insondagi funksional savodxonlikning qay darajada rivojlanganligi bilan bog'liq ekanligi hech kimga sir emas. Ta'lim tizimi ham zamon talablari asosida o'quvchining nafaqat bilim, ko'nikma va malakasini rivojlantirishga, balki uni o'z layoqati va qobiliyatlaridan yetarlicha foydalana oladigan, tashqi muhit va jamiyat bilan munosabatga kirishi oladigan, tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratmoqda. Bu borada rivojlantirilishi lozim bo'lgan bir qancha yo'nalishlar mavjud bo'lib, bunda o'qish savodxonligining o'rnini juda ahamiyatlidir.

Bugungi kunda o'qish savodxonligi tushunchasiga shunchaki ta'limning boshlang'ich davridagi o'quvchining harf tanish jarayoni sifatida qaralmaydi. Endilikda o'qish savodxonligi ancha keng qamrovli tushuncha bo'lib, bu insonning barcha ma'lumotlarni aniqlash, tushunish, unga munosabat bildirish va undan foydalanish jarayonidir. “Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash” bo'yicha qo'llanmada o'qish savodxonligiga quyidagicha ta'rif beriladi: “O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish,

ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir” [2; 12-b.].

O‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun matn tanlashda turli ko‘rinishdagi va turli uslubdagi matnlarga e‘tibor qaratiladi. Jumladan, matnlar ko‘rinishi jihatidan qo‘lyozma, nashr etilgan yoki elektron shaklda bo‘lishi, unda turli xil jadvallar, grafiklar, diagrammalar, rasmlar, xaritalar ham aks etishi mumkin. Shuningdek, matnlar mazmun jihatdan quyidagi talablarga javob berishi lozim [2]:

- a) matnning yangi axborotlar bilan boyligi;
- b) o‘quv dasturida berilgan aynan bitta mavzu bilan bog‘lanishning yo‘qligi;
- c) o‘quvchi yoshining qabul qilish xususiyatlariga mos bo‘lishi;
- d) o‘quvchining kitobxon sifatidagi va ijtimoiy hayotdagi manfaatlariga mos bo‘lishi.

Berilgan matn uchun tanlangan topshiriqlar esa quyidagi 4 jarayonni yuzaga chiqarish bilan bog‘liq holda tanlanishi maqsadga muvofiqdir:

1. Axborotlarni qidirish va uni o‘zlashtirish.
2. Axborotlar ustida mulohaza yuritish (sharhlash, integratsiyalash).
3. Matnni tushunish va baholash.
4. Matndagi ma‘lumotlardan foydalanish.

O‘qib tushunish malakasi ona tili darslarida shakllantirilishi barchamizga ma‘lum. Chunki adabiyot darslarida badiiy matnni tushunishga asosiy e‘tibor qaratilsa, ona tili darslarida turli uslubdagi matnlar bilan ish olib borish imkoniyati kengroq.

“Har bir o‘quvchining qabul qilish qobiliyati har xil bo‘lgani uchun matnni bir xilda o‘qib chiqqanlar tushunishning har xil darajasida turgan bo‘ladi. O‘qituvchi ushbu darajalarni yaxshi bilsa, savollar yordamida o‘quvchining qaysi darajada turganini aniqlashi, matnni yaxshiroq tushunishi uchun yo‘nalish berishi mumkin bo‘ladi. Ona tili darsliklaridagi matn bilan ishlash mashqlari ham mazkur nazariy ma‘lumotga asoslanishi lozim. Masalan, matnni tushunishning dastlabki darajasi assotsiativ daraja bo‘lsa, unda o‘quvchida matn mavzusi, matn uslubi va matndagi so‘zlarga assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Keyingi daraja bu leksik-morfologik



daraja boʻlib, bunda oʻquvchi matndagi soʻzlarni va ularning maʼnosini tushunadi. Uchinchi daraja kontekstual daraja boʻlib, unda soʻzlarning kontekstual maʼnolari anglashiladi. Fikrimizcha, matn bilan bogʻliq mashqlarda aynan shu uchinchi darajaga koʻproq urgʻu berilishi kerak, chunki unda soʻzlarning matn ichida qanday maʼnoda kelayotgani anglashiladi, demakki, soʻzlar alohida birlik darajasidan matn mazmunining tarkibiy qismi darajasiga koʻtariladi” [1, 221].

Har bir fanning yaxshi oʻzlashtirilishi oʻquvchining oʻqish savodxonligi bilan uzviy aloqador. Shunday ekan, ona tili darslarida uni rivojlantirish uchun unga taʼsir etuvchi omillarni bilgan holda qanday yoʻnalishda ish olib borish mumkinligi haqida ayrim tavsiyalarni berib oʻtamiz.

*“Gulxan” jurnalidan olingan ushbu maqola bilan tanishib, maqola asosida berilgan topshiriqlarni bajarishga harakat qiling.*

#### **Haykal oddiy tosh emish.**

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda juda xunuk manzara aks etgan foto va video tasvirlar tarqaldi. Shoʻxligidan deymizmi yoki shuhratga oʻchlikmi, xullas, uch-toʻrt tengdoshingiz sarkarda bobomiz Amir Temur haykali ustiga chiqib suratga tushibdi. Yoqimsiz odat yuqumli boʻladi, shekilli, ularga havas qilgan yana bir necha oʻsmir Ikkinchi jahon urushi yillari boshqa oʻlkalardan keltirilgan yetim bolalarni bagʻriga olib, norasidalarining kentik koʻnglini toʻldirgan, ota-ona mehrini koʻrsatgan Shomahmudovlar sharafiga “Xalqlar doʻstligi” saroyi maydoniga oʻrnatilgan haykallarga ana shunday “mehr” koʻrsatishibdi. Bu manzara oʻzligini, millatini qadrlagan har bir odamning qalbini larzaga soldi, desam xato boʻlmaydi. Axir bolalar “ot-ot” oʻynamoqchi boʻlsa, boshqa istirohat bogʻlarida oʻnlab sher, kiyiklarning haykallari bor-ku! Nima bu kaltafahmlikmi, befarosatlikmi?! Nahotki, bunday bolalar tarbiya topgan oilada, taʼlim olayotgan oʻquv maskanlarida haykallar haqida, ular nima maqsadda oʻrnatilishi haqida gapirilmagan boʻlsa! Men bu bolalarga jahongir bobomizning yurt ravnaqi, daxlsizligi uchun qilgan xizmatlari, Shomahmudovlar oilasi oʻzbekning bagʻrikengligini dunyoga tanitgani haqida aytib oʻtirmayman. Buni bilishadi. Lekin ular qalbida millatidan faxrlanish hissi yoʻqligidan xafaligimni aytmogchiman.

Rasmlar ostida izoh qoldirganlardan biri, “Ha, endi bular bola-da, sho`xlik qilibdi, haykal bor-yo`g`i bir tosh bo`lsa, shunga shunchami?!” deya fikr bildiribdi. Birinchidan, u avval tosh edi, (aslida haykallar tosh emas, bronza, misdan yaraladi) lekin haykaltarosh yillar davomida yaratayotgan qahramonining siymosini yaratar ekan, uning ichki olamini chehrasida ifodalash uchun astoydil izlanadi, mehnat qiladi. Natijada san`at asari dunyoga keladi. Bu san`at asari endi buyuk alloma bobolarimiz, ulug` insonlar bo`lib xotiramizga o`rnashadi, hurmatimizga sazovor bo`ladi, millat mulkiga aylanadi. Chunki haykal ularni xalq uchun, vatan uchun qilgan buyuk xizmatlarining e`tirofi, xalqning ehtiromi sifatida o`rnatiladi. O`qituvchingizdan yoki dadangizdan so`rang-chi, birinchi o`zbek generali Sobir Rahimov haykali qayta tiklanganda, Shomahmudovlar haykali o`z joyiga qaytarilganda qanchalar quvonishdi. Agar ularga shunchaki tosh deb qaralganida bu hayajon, bu quvonch bo`larmidi?! Mana yarim asrdirki, har yili Xotira va qadrlash kunida yuzlab odamlar Mustaqillik maydonidagi “Motamsaro ona” haykali poyiga gullar qo`yadi. Ikkinchi jahon urushida halok bo`lgan jigargo`shalarini, farzandidan ayrilgan ona faryodini mana shu muqaddas haykal poyida yurakdan his qiladi, yodga oladi. Qolaversa, bu haykallar ham biz uchun ulug` qadriyat. Bejizga “Avesto” kitobiga, afsonaviy qahramon Alpomishga mahobatli haykallar o`rnatdikmi? Axir ana shu haykallar bizga ajdodlarimizni qanday zukko, bilimdon, vatanparvar bo`lganligini eslatib turuvchi, qalbimizga g`urur soluvchi, o`zligimizni anglatuvchi buyuk qadriyat emasmi?

Men sobiq ittifoqning juda ko`p shaharlarida bo`lganman. U yerlarda millat qahramonlariga, tarixiy voqealarga o`rnatilgan oddiy sement yoki granitdan yaratilgan haykallarni ko`rganman. Bu haykallar menga juda g`arib, oddiy ko`ringan. Qalbimda haykaltarosh vatandoshlarim iste`dodidan, yurtimizda buyuklarimizning nafaqat shaxsiga, hatto haykaliga ham ulkan hurmat-ehtirom ko`rsatilishidan sevinib ketganman. Biz o`zbeklar o`zidan kattalarni juda hurmat qilamiz, hatto ular o`tirgan uyning tomiga chiqishni ham odobsizlik deb bilamiz. Ming shukurki, orangizda yuqoridagidek “sho`x” bolalar ko`p emas.

Atrofingizdagi shunday bolalarga aslo loqayd bo'lmang. Nojo'ya ishga qo'l urayotgan o'rtog'ingizni hech ikkilanmasdan bilagidan ushlab qoling, xatosini tushuntiring. To'g'ri, avvaliga xafa bo'lar, lekin keyin do'st achitib gapirishini anglab oladi.

O'zining qadriga yetmagan o'zgani ham qadrlamaydi. Qadrga yetish esa vataningizdagi giyohni, tosh-u tuproqni ham avaylashdan boshlanadi.

Agar o'sha bolalar haykal qoshida suratga tushganda quvonardim, chunki u kimdan faxrlanishini anglagan bo'lardi. Lekin ular o'z xatti-harakatlari bilan nimani maqtanmoqchi bo'lishdi yoki hammani hayratga soladigan selfi qilmoqchi edilarmi? Shunday bo'lganda ham ular biror martabaga ega bo'lisharmidi? Lekin bugun ular ko'pchilikning nafratiga uchragani aniq. O'zlarinigina emas, ota-onasini ham uyaltirib qo'yishdi. Tengdoshlaringizning bu harakatiga qanday baho berasiz? Sizningcha, haykal nima, haykal oddiy toshmi?

**Siz yashayotgan joyda qanday haykallar bor, ular tarixini bilasizmi?**

*Muhabbat HAMIDOVA*

## MATN YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR

**1. Nima uchun “Xalqlar do'stligi” maydoniga Shomahmudovlar sharafiga haykal o'rnatilgan? Matndan foydalangan holda javobingizni quyidagi qatorlarga yozing.**

---

*(Javob: Shomahmudovlar oilasi Ikkinchi jahon urushi yillari boshqa o'lkalardan keltirilgan yetim bolalarni bag'riga olib, norasidalarining kemtik ko'nglini to'ldirgan, ota-ona mehrini ko'rsatganligi uchun.)*

**2. Nima sababdan bolalar haykalning ustiga chiqib rasmga tushgan deb o'ylaysiz?**

- A. Bolalar Amir Temur va Shomahmudovlar oilasini yaxshi koʻrganligi uchun  
 B. Bolalar yurtimiz qahramonlarini hurmat qilishganligi uchun  
 C. Ijtimoiy tarmoqlarda mashhur boʻlish uchun  
 D. Bolalar zerikib qolganliklari uchun

(Javob: C.)

**3. Maqola muallifi ushbu harakatlarni amalga oshirgan bolalarning qalbida qanday his-tuygʻular yoʻq degan xulosaga keldi?**

- A. Ular oʻzbek millati tarixini bilmaydi  
 B. Ular qalbida millatidan faxrlanish hissi yoʻq  
 C. Ular qalbida achinish hissi yoʻq  
 D. Ular qalbida shukronalik hissi yoʻq

(Javob: B)

4. *Yoqimsiz odat yuqumli boʻladi, shekilli, ularga havas qilgan yana bir necha oʻsmir Ikkinchi jahon urushi yillari boshqa oʻlkalardan keltirilgan yetim bolalarni bagʻriga olib, norasidalarining kemtik koʻnglini toʻldirgan, ota-ona mehrini koʻrsatgan Shomahmudovlar sharafiga “Xalqlar doʻstligi” saroyi maydoniga oʻrnatilgan haykallarga ana shunday “mehr” koʻrsatishibdi. Ushbu gap tarkibidagi mehr soʻzining qoʻshtirnoqqa olinish sababini koʻrsating.*

(Javob: Ushbu jumla tarkibida **mehr** soʻzi kinoya maʼnosida qoʻllangan, yaʼni muallif bolalarning ushbu harakatlari haykallarga boʻlgan mehrlari tufayli amalga oshirilmagan, balkim, aksincha hurmatsizlikning ifodasi demoqchi.)

**5. Maqola matnida berilgan ayrim soʻzlarning izohini quyidagi jadval yordamida aniqlashga harakat qiling.**

A. Bronza	1. Har qanday xavf yoki tajovuzdan himoya etilganlik
B. Daxlsizlik	2. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi
D. “Avesto”	3. Misning qalay, alyuminiy, kremniy, berilliy, qoʻrgʻoshin elementlari bilan qotishmasi



E. Granit	4. Tarkibi kvars, dala shpati va slyudadan iborat, donador qattiq tog' jinsi, qimmatli qurilish materiali
-----------	---

(Javob: A-3, B-1, D-2, E-4)

**6. Matnga asoslangan holda “Haykallar nimani ifodalaydi?” degan savolga javob bering.**

(Javob: Haykallar ularning xalq uchun, vatan uchun qilgan buyuk xizmatlarining e'tirofi, xalqning ehtiromini ifodalaydi.)

**7. Berilgan matnga asoslarga holda haykallarning o'rnatilish sabablarini yozing.**

(Javob: Buyuk bobolarimiz, ulug' insonlarning xotiramizga abadiy o'rnashishi, hurmatimizga sazovor bo'lishi va oxir oqibatda millatning mulkiga aylanishi uchun o'rnatiladi.)

**8. Maqola matnida quyidagi o'zbek xalq maqollariga duch keldingiz. Ularning izohini daftaringizga yozing.**

Otang o'tirgan uyning tomiga chiqma.
Do'st achitib gapiradi.
O'zining qadriga yetmagan o'zgani ham qadrlamaydi.

**9. “Tengdoshlaringizning bu harakatiga qanday baho berasiz? Sizningcha, haykal nima, haykal oddiy toshmi?” Muallifning ushbu savoliga javob bering.**

**10. Siz yashayotgan joyda qanday haykallar bor, ular tarixini bilasizmi? Tahririyatimizga shular haqida yozib yuboring.**

(Javob: 9-10-savollarga javob berishni o'quvchiga uyga vazifa sifatida berish tavsiya etiladi.)

Ko'rib turganingizdek, ushbu topshiriqlar nafaqat o'quvchining o'qish bilan bog'liq ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki ona tili darslarida egallashi lozim bo'lgan ayrim lingvistik kompetensiyalarini (qo'shtirnoqning qo'llanilishi, so'zlarning izohi, maqollarning qo'llanilishi) qay darajada egallaganligini, shuningdek, o'quvchining ijtimoiy hayotdagi o'rnini aniqlash, unda bo'layotgan o'zgarishlarga



nisbatan oʻz ijodiy fikrini bildirish qobiliyatini ham sinovdan oʻtkazishga qaratilgan.

Xulosa oʻrinda shuni aytish mumkinki, “Oʻqish savodxonligi bir qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi. Jumladan, alohida olingan soʻzning maʼnosini tushunishdan tortib, matnning grammatik va lingvistik qurilishini anglash hamda matndan olingan maʼnoni oʻzining olam haqidagi tasavvurlari bilan bogʻlashni oʻz ichiga oladi” [2; 13-b.]. Tavsiya etilgan yoʻnalishda olib borilgan oʻqish savodxonligi jarayoni matnni oʻqib tushunish, fikrlash, oʻz fikrlarini ogʻzaki va yozma tarzda ifodalash, oʻqilgan maʼlumotlardan foydalanish kabi bir qator bosqichlarni qamrab oladi. Oʻquv yili davomida matn ustida ishlashga oid bunday shakldagi topshiriqlarning muntazam oʻtkazib borilishi oʻquvchida DTSda belgilanganidek, “turli janrdagi matnlarni ifodali va taʼsirchan oʻqiy olish, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda va qoʻshma gaplar ohangiga rioya qilib oʻqiy olish” [3; 142-b.] nigina emas, balki matnni oʻqib tushunish, yaʼni uni idrok eta olishga oid malakalarning shakllanishida muhim oʻrin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Azimova I. Ona tili taʼlimida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global taʼlim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika III anʼanaviy ilmiy-anjuman materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 215–224.

2. Xalqaro tadqiqotlarda oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qoʻllanma). Taʼlim inspeksiyasi huzuridagi Taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиqlаш тўғрисида”ги қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 14-сон.

4. [https://kpfu.ru/portal/docs/F\\_1484002361/Myagkij.monitoring.chitat..gram](https://kpfu.ru/portal/docs/F_1484002361/Myagkij.monitoring.chitat..gram)

*Dildor NURMUHAMEDOVA*  
*Surxondaryo viloyati Termiz shahar*  
*23-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

## **O'ZBEK TILI TARAQQIYOTIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH**

Til nutqda namoyon bo'larkan, nutq egasining qaysi millat vakili ekanligidan darak beradi. Millatning meros qoldirayotgan an'analari-yu qadriyatlarini, ijtimoy hayotini so'zlovchi xalqning ijod mahsullarida tilning taraqqiyot bosqichlari ham o'z ifodasini topgan. Bayon etmoqchi bo'lgan dolzarb mavzularimizdan biri - til, nutq boyligi haqida; o'zbek tilining tarixida va taraqqiyotida bevosita xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyos ekanligi xususida so'z boradi. Xalqning og'zaki adabiyoti asrlar osha o'zlikni, milliy qadriyatni, urf-odatni kuylab kelmoqda. O'zining muqobili ko'p so'zlardan tashkil topgan lug'at boyligi bilan dunyoga tanilgan o'zbek tili yashashida va yashnashida ana shu xalq vakillarining o'z avlodiga jozibadorligini saqlagan holda taqdim etish mas'uliyatini muqaddas qadriyat deb hisoblaganidadir. Bugungi kun o'quvchilari bilan xalq og'zaki ijodi namunalarini dastur asosida ona tili ta'limi bilan uzviylashtirib, barcha sinflar kesimida mukammal o'rganilishini yo'lga qo'yish zarurati tug'ilmoqda. Bu ehtiyojning tug'ilishi yosh avlod tilida texnika asrining texnik atamalari, zamonaviylashuv hayot tarziga mos muloqot shaklining tezda o'rnashib olishi, "ommaviy madaniyat"ning urchishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham so'z boyligini rivojlantirish, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan tilni zamon bilan uyg'unlashtirib o'zbek tili rivojlanishiiga hissa qo'shishni kechiktirib bo'lmaydi. Bu muammoning yechimlaridan biri, xalq og'zaki ijodini mukammal o'rganishga bel bog'lashdir. O'zbek tilning latofatni his etish, go'zalligini ko'ra bilishda xalq qo'shiqlari, maqollari-yu matallari, topishmog'-u jumboqlari, askiya-yu latifalari, ertag-u dostonlari - barcha-barchasining qiymati bor. O'quvchining yaxshi tarbiya egasi bo'lishiga ham bog'liq bu jarayon, umumta'lim fanlarini hayot bilan bog'lab o'zlashtirishda tom ma'noda xizmat qiladi: kreativ fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish.

	<b>Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA, Mohira AXROLOVA</b>	
	Shevaga xos ayrim so‘zlarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	171
	<b>Dilnavoz ABDULLAYEVA</b>	
	Qaratqich kelishigining ayrim formalar bilan sinonimiyasi.....	175
	<b>Dilobar BERDIYEVA, Farrux ALLOQOV,</b>	
	<b>Moxinur Yaxshiqulova</b>	
	Qorako‘l shevalarining leksik-semantik xususiyatlari.....	179
	<b>Жалолиддин ЁДГОРОВ</b>	
	Бадний матнда ундовларнинг лингвопоэтик аҳамияти.....	186
	<b>Бобир СУЛАЙМОНОВ</b>	
	Темирбек Тўрабоевнинг «Теорема» романида сифат туркумига хос сўзларнинг метафоралашуви.....	193
	<b>Zamiraxon TEMIROVA</b>	
	O‘zbek tili shevalaridagi so‘zlar va ularning amalda qo‘llanishi .....	200
	<b>М. НЕГМАДЖАНОВА</b>	
	Ибн Синонинг “Тиб қонунлари” асарида гинекологияга онд термин ва тушунчаларнинг қўлланишига доир.....	205
	<b>Р. НАБИЕВ</b>	
	Топонимик бирликлар - тил бойлигини кўрсатувчи омил сифатида.....	210
	<b>2-БЎЛИМ. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ</b>	
	<b>Klaraxon MAVLONOVA, Nilufar Hakimova</b>	
	Ona tili darslarida o‘qish savodxonligini egallash imkoniyatlari.....	217
	<b>Dildor NURMUHAMEDOVA</b>	
	O‘zbek tili taraqqiyotida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish.....	225
	<b>Muhayyoxon JO‘RAXONOVA</b>	
	O‘quvchilarga adabiy til me‘yorlarini o‘rgatishning tarixiy taraqqiyoti va bugungi jihatlari.....	232
<b>Нв</b>		
Ўзбек		
муамм		
<b>Ш:</b>		
Ўзбек		
давлат		
<b>Ёр</b>		
Тил ғ		
<b>Аб.</b>		
Қўшм		
ҳақид:		
<b>Ма</b>		
Ўзбек		
<b>Му</b>		
<b>Но</b>		
Дейкс		
<b>Ду</b>		
Дунё		
хусуси		
<b>Но</b>		
Котиб.		
<b>Аб.</b>		
Тил и:		
тарқиб		
<b>Не</b>		
Терми		
<b>Az:</b>		
Fuziуа		
<b>Ма</b>		
Матнд		
хосли		

**Shahloxon BOBOJONOVA**

Ona tili o'qitishda lug'at diktant va uning o'quvchilar yozma  
nutqini shakllantirishdagi o'rni .....240

**Shohista YANDASHEVA**

Ta'lim sifati natijalarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida  
baholash pedagogik muammo sifatida .....245

**Sarvinoz ABDULLAYEVA**

O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi,  
qadimiy asarlar namunalaridan foydalanish .....251

**Mo'tabar SHODMONOVA**

O'quvchi-talabalarda lingvistik tahlil qilish ko'nikmasini  
shakllantirish usullari .....258

**Iqbol MUZAFFAROVA**

Ona tili va adabiyot mavzularini bog'lab o'qitish – ona tili ta'limi  
samaradorligini oshirish vositasi .....264

**Munavvar ROZIQOVA**

Yozma savodxonlikni oshirish muammolari .....271

**Manzura SATTOROVA**

Darshikdagi matnlar – PISA ning asosi .....275

**Madina ALIMOVA**

Ona tili darslarida iboralarni o'qitish yuzasidan ayrim  
mulohazalar .....282

**Iroda XAYITBOYEVA**

5-sinf ona tili darsligiga o'qitishning innovatsion metodlarini  
kiritish .....287

**Irodaxon ERGASHEVA**

Ona tili va adabiyot fanini o'qitish samaradorligini oshirishda  
yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....295

**3-БЎЛИМ. ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ  
ТИЛИДА ИШИ ЮРИТИШИ**

**Фарҳод БОБОЖОНОВ, Инобат МАДИРИМОВА**

Иш юритишга доир ҳужжатларни помлашнинг  
айрим муаммолари .....300





ISBN 978-9943-6409-1-7



9 789943 640917